ISSN:3030-332X
Impact factor: 9,493
International journal of scientific researchers

MUHADDISLAR SULTONI

Murodova Dilrabo Shomurodovna
Buxoro davlat universiteti dotsenti, t.f.f.d. (PhD)
Nasullayeva Moxlaroyim Aziz qizi
Buxoro davlat universiteti talabasi

Annotatsiysa: Ushbu maqolada buyuk muhaddis va islom ilmlarining yirik namoyondasi mom al-Buxoriyning hayoti,ilmiy faoliyati ,hamda hadis ilmi rivojiga qo'shgan hissasi yoritiladi. Maqolada allomaning bolalik davri ilm talabida qilgan safarlari ustozlari va shogirtlari haqida ma'lumot beriladi. Tadqiqot davomida Al-Jome' as-Sahih asari uning islom dunyosidagi o'rni ko'rsatib o'tiladi.

Kalit so'zlar: Imom al-Buxoriy, alloma, muhaddis, islom olami, manba, hadis, sahih, nosahih, hasan .

Abstract. This article highlights the life scholarly activity, and contribution to the science of hadith of the great muhaddith and prominent representative of Islamic sciences, Imam al- Bukhari, The article provides information about his childhood his journeys in pursuit of knowledge,as well as his teachers and students .The study also examines his work Al –Jame ' as- Sahih and demonstrates ist significance in the Islamic world.

Keywords: Imam al –Bukhari, scholar, hadith scholar, Islamic world, source, hadith, authentic, inauthentic, fair.

Аннотация: В данной статье освещаются жизнь, научная деятельность и вклад в науку хадиса великого мухаддиса и выдающегося представителя исламских наук – Имам аль Бухари. В статье приводятся сведения о детских годах ученего, его научных путешествиях в поисках зананий, а также о его наставниках и учениках. В ходе исследования рассматривается труд Аль-Джами ас-Сахих и раскрывается его место в исламском мире.

Ключевые слова:Имам ал-Бухари учйхый, знаток хадисов ,исламиский мир,
Хадис, достоверний хороший хадис.

Kirish

Islom tarixida shunday buyuk allomalar borki ularning yulduzlari haliham so'nmagan so'nmaydi ham. Shunday buyuk allomalardan biri bizning bobomiz Imom al – Buxoriydir .U kishining faoliyatlari va yozgan asarlari hali hamon bizga mayoq kabi to'g'ri yo'l ko'rsatib kelmoqda .Imom al – Buxoriy 810 -870 –yillarda yashab o'tgan.Otasi Ismoil o'sha davrning buyuk muhaddislaridan biri imom Molikning shogirdi bo'lgan. Onasi dindor va oqila ayol edi Yoshligida otasidan ayriladi, juda kichikligidan hadislarni yod olishni boshlaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Mazkur maqolada butun Islam olamida va hadisshunosligida buyuk hissa qo'shgan Imom al-Buxoriy va uning faoliyati asarlari tahlil qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur maqolada tarix fanida tadqiqotlar olib borishning tarixiylik tamoyili xolislik qiyosiy – mantiqiy va tizimli tahlil metodlaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar

Manbalarda takidlanishishicha Imom al – Buxoriy yoshligidan hadis ilmiga qiziqqan va hadislarni yodlash bilan birga ularni sahih va nosahihga ajrata olgan. Allomaning ilk ustozlari sifatida Buxoroda ko'zga ko'ringan muhaddislardan Doxiliy, Muhammad ibn Salom al – Poykandiy,Muhammad ibn Yusuf al – Poykandiy, Muhammad al – Masnadiy kabilar tilga olinadi. U juda salohiyatli va aqilli bo'lib, Poykandiy'' Muhammad ibn Ismoil qachonk mening huzurimga kirsa, har doim o'zimni yo'qotib qoyib

havotirda turaman ‘’, -degan fikrlarni aytib o’tadi.bundan ko’rinib turibdiki Buxoriy yoshligidayoq ilmga chanqoq va ancha ilmlarni yod olgan edi.[1, 8].

Imom al – Buxoriy tavallud topgan davrda Abbosiylar sulolasi hukmronligi davri edi. Shu davrda Xalifa Horun – ar Rashid hukmronligi tugab ,o’g’illari Mamun va Amin o’zaro taxt uchun kurashgan bo’lsalarda mamlakat kuch – qudratini yo’qotmagan edi.[2 , 11].

Buyuk alloma o’n olti yoshga yetguncha o’z yurtidagi mashoyixlardan hadis eshitib saboq oladi ,shundan so’ng esa ilmlarning markazi Payg’ambarimizning vatani bo’lmish Qur’oni Karim nozil bo’lgan Hijozi sharif tomon yo’l oladi. Imom al – Buxoriyning kotiblaridan biri Ibn Abu al – Varroqning zikr etishicha u doim shunday der ekan,‘’ Qachonki o’n olti yoshni urganimda Ibn al- Muborak va Vaqiyning kitoblarini yod etib so’ngra ularni asxobu - ray bilimlarini bilib olgan edim. So’ngra onam va akam Ahmad bilan birga Haj ibotatini ado etishga safarga jo’nadim ‘’Al – Varroqning bu fikrlaridan ma’lumki alloma dastlab 825-yilda dastlabgi safarda bo’lgan .Shu yili Haj ibotatini ado etib bo’lgach onasi bilan akasini qaytarib yuborib o’zi o’sha yerda qoladi, va o’sha yerdagi ashoyiqlarning ilmiy yig’inlarida qatnasha boshlaydi. O’sha davrda Makkada bir qancha ko’zga ko’ringan ulamolar istiqomat qilayotgan bo’lib, hadis ilmi sohasida imom Abul Validiy ibn al- Arzakiy, Abdulloh ibn az – Zubayr va alloma Xamidlarni aytish mumkin.[1,8].

Imom al- Buxoriy hadis talabida rixlat darvozasini qattiq qoqdilar va islom mamlakatlarining deyarli barchasiga rihlat qildilar .Allomaning o’zlari bu haqida, ‘’Men Shom, Misr va Jaziraga ikki marta Basraga to’rt marta bordim .Hijozda olti yil yashadim ammo muhaddislar bilan birga Kufa va Bog’dodga necha marta borganimning hisobiga yetolmayman ‘’, - deydilar.

Az- Zabariy u kishining qadam ranjida qilgan yerlari haqida gapirib Balx ,Nishopur Ray ,Bag’dod ,Basra, Kufa, Madina ,Vosid, Damashq,Asqalon, va boshqa shaharlarni zikr qiladilar [2,21]. Bundan ko’rinib turibdiki alloma o’sha davrdadunyoga mashur bo’lgan va Payg’ambarimizning 12 nafar sahobalari 12 ta hududga tarqalib ketgandan so’ng ularni qidirib brogan. Aynan Payg’ambarimiz o’zlari aytgan to’g’ri amallar va hadislarni to’plagan.

Allomaning yuqorida aytib o’tilgan rihlat shaharlardagi yagona maqsadi - hadis ilmi haqida saboq olish edi.‘’Bag’dod tarixi‘’ nomli yirik asar muallifi Bog’dodiyning o’zi;‘’Men hadislarni ming, ehtimol undan ham ortiq shayx ulamolarga tayanib yozdim, mening kitobimda isnodi ko’rsatilmagan birorta ham hadis yo’q, deb aytganini eshitganman ‘’, - degan so’zlarini keltiradi. [1, 10]

Manbalarda keltirilicha Buxoriyning o’z ilmiy - ijodiy faoliyat davomida yigirmadan ortiq asarlarni yozgan. Ular quyidagilardan iborat ‘’ Al – Jome as – Sahih ‘’, ‘’ At - Tarix al – Kabir ‘’ , ‘’ At - Tarix al – avsat ‘’ , ‘’ Kitob al -kuna‘’

‘’ Kitob al- favoid ‘’ , ‘’Al – Musnad al – Kabir ‘’ va boshqa asrlar edi. [1,15]

Chunonchi , allomaning xotirasi kuchli bo’lgani xususida ko’pdan - ko’p hikoyatlar naql qilinadi. Ustozlari ham uning Olloh taolo ato etgan noyob qobilyati va qubbayi hofizasini sezib unga yakdil bo’lib tan berganlar, u haqida Muhammad al- Azxar as – Sijistoniydan o’qiymiz, ‘’ Sulaymon ibn Harbdin hadis ilmi dansaboq olur edik Al – Buxoriy ham biz bilan birga hadis eshitardiyu lekin bitmasdi.‘’ Nechun yozmayotir‘’, soraganlarida,‘’ O’z yurti Buxoroga qaytg’ach yoddin yozadur‘’ , - deb javob olgandilar‘’ [3,11]. Demak bobomizning xotiralari shu qadar kuchli bo’lganki u kishi hadislarni eshitib ham yodlarida saqlab ola qolganlar,hattoki 600 dan ortiq hadislarni yoddan bilgan. zamondoshlari orasida ham allomaga havas qiladigan insonlar juda ko’p edi.Masalan; Imom Abu Bakr Muhammad ibn Ishoq huzayma shunday yozad:‘’Osmonu falakning ostida Muhammad ibn Ismoildan ko’ra ko’proq hadis biladigan inson yo’qdir ‘’. Yoki Abdulloh ibn Hama al- Aliy ‘’Koshki men Ismoil boshidagi bir tuk bo’lib qolsaydim‘’, - deb yozib ketgan [3,110]

Bu ulug’ inson bir qancha nasablar bilan ham musulmonlar dunyosida mashhur bo’lgan. Masalan:‘’Amir ul – mo’minun fil- hadis ‘’ [Hadis ilmi bobida mo’minlar amiri] ,‘’ Al – Imom ul- mukdom ‘’ [Jasur Imom] ,‘’ Imom ul – Muhaddisiy ‘’

[Muhaddislar imomi], ‘’ Sayid ul - fuqaro ‘’ [Faqihlar sayyidi] kabi bir qancha nomlar bilan tanilgan [4,9].

Ammo o’sha davrda ham Buxoriyga ishonmaydigan uning ilmiga Shubha bilan qaraydigan insonlar ham yo’q ema edi .Ular allomani ilmini sinash maqsadida imtihon qiladilar. Muhammad ibn Abu Hotim quyidagi xabarni Abu ul – Azxardan olganloklarini aytib bunday deydilar, ‘’ Samarqandda to’rt yuz

hadis ulamolari bor edi. Bir kuni ular bir joyga to'planishib, yeti kun davomida Buxoriyni imtihon qiladilar. Maqsadlari ul kishini hadis borasida yanglishtirib, mag'lub etish edi. Shul boisdan ular Shomga mansub hadislar isnodini Iroqqa mansub hadislar isnodi bilan va Iroqqa mansub hadislar isnodini SHomga mansub hadislar isnodi bilan,Makkaga mansub hadislar isnodini Yamanga mansub hadislar isnodi bilan almashtirib qo'yishadi.Ammo ular harchand urinmasinlar na isnod na matn hususida ul kishi zarrachayam chalkashmadilar [2,26].

Al- Jabbor as- Samarqandiy Buxoriy haqida eslab shunday deydi.'' Kechalardan birida men Imom al- Buxoriyning xufton namozidan keyin Alloh taologa duo qila turib, ''Yo parvardigor ! Yer yuzi keng bo'lsada menga torlik qildi meni o'z dargohingga qabul aylagin ! '' , - deb aytganlarini eshittim. So'ng o'sha oy tugamay Alloh taolo ul kishini o'z huzuriga chorladi '' , - deydilar .Imom al- Buxoriy 870 – yil 31- avgust kuni 62 yoshda olamdan o'tadi

XULOSA

Imom al – Buxoriy Islom ilm va uning rivojiga juda katta hissa qo'shdi.Aynan Buxoriy orqali hadislar to'g'ri va noto'g'riga ajratildi. Payg'ambarimiz vafod etganlaridan so'ng u kishi qilgan amallari va aytgan so'zlari xalq orasida to'gri va noto'g'ri talqin qilina boshlagandi. Buxoriy ning bu borada xizmatlari juda katta bo'lgan. U o'zining Al – Jome as- Sahih asarida 7575 ta hadislarni sahih va nosahihga ajratadi. Aynan Buxoriyning ilmiy merosi va uning nomini bugun butun Islom olami taniydi va hurmat qiladi. Vatanimizda ham Buxoriyning tavallud ayyomlari nishonlanadi.Biz shunday bobolarning avlodlari ekanligimizdan faxrlanamiz

References

1. Buyuk yurt allomalari Toshkent '' O'zbekiston '' 2020
2. Imom al- Buxoriy barokoti Toshkent 2007
3. Imom al- Buxoriy saboqlari Toshkent 2001
4. Imom al – Buxoriy - Muhaddislar sultoni Toshkent 2004